

DAVLAT SHAKLI: NAZARIYA VA ZAMONAVIY TALQIN**Nosirjonov Abdulaziz Sultonali o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining Bojxona**Bojxona ishi yo'nalishi 1-kurs, 525-guruh kursanti***Mirzakarimov Olimjon Otabek o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining**Bojxona instituti, Bojxona ishi yo'nalishi**1-kurs, 425-guruh kursanti***MAQOLA MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 26.12.2025**Revised: 27.12.2025**Accepted: 28.12.2025***KALIT SO'ZLAR:**

davlat shakli, davlat boshqaruvi, respublika, prezidentlik tizimi, parlament vakolatlari, unitar davlat, hokimiyatlar bo'linishi, siyosiy rejim, demokratlashtirish, konstitutsiyaviy islohotlar, o'zbekiston respublikasi, modernizatsiya, inson huquqlari, raqamli hukumat, huquqiy davlat

Ushbu maqola davlat shakli tushunchasini nazariy jihatdan o'rganib, uning tarkibiy qismlari – davlat boshqaruvi shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy rejimni zamonaviy talqinlar asosida tahlil qiladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasining 2023-yildagi Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida amalga oshirilgan o'zgarishlar, jumladan, parlament vakolatlari kengaytirilishi, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, unitar davlat tuzilishi va demokratik siyosiy rejimning takomillashuv tendensiyalari muhokama qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, davlat shaklini modernizatsiya qilishda hokimiyatlar muvozanati, mahalliy boshqaruv mustaqilligining oshishi, raqamli transformatsiya va inson huquqlarining ustuvorligi asosiy omillar hisoblanadi.

Kirish

Davlat shakli — bu davlat hokimiyatini tashkil etish, hududiy tuzilish va uni amalga oshirish usullarining majmuidir. «Davlat shakli» iborasini bir guruh olimlar «davlat tuzumi»ning sinonimi sifatida qoʻllaydilar va davlat shakli tushunchasiga davlat boshqaruv shakli, davlatning tuzilish shakli va siyosiy rejimi kiradi, deb hisoblaydilar. Ikkinchi guruh olimlar davlat shakliga davlat boshqaruv shakli va davlat tuzilishi shakli kiradi deb, unga siyosiy rejimni qoʻshmaydilar. Yana bir toifa huquqshunoslar davlat shakli – davlat hokimiyatining tuzilish shaklidir, deydi. Shunday qilib, davlat shakli uch tushunchani: davlat boshqaruv shakli, davlat tuzilish shakli va siyosiy rejimni oʻz ichiga oladi. Davlat uzoq tarixiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtdi, shu davr ichida u shakllanib, rivojlanib, oʻzgarib keldi. Tabiiyki, davlat insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida har xil shakllarga ega boʻlgan. Davlatni uning shakli nuqtai nazaridan oʻrganish – avvalo, davlat tuzilishi, uning asosiy tarkibiy qismlari va ichki strukturasini, shuningdek davlat hokimiyatini oʻrnatish va amalga oshirishning asosiy usullarini anglashni nazarda tutadi.

Xalq oʻz hayot tarzini tushunishi, jamiyat qonunlariga rioya qilishi va shu tuzum qonunlarini hurmat qilishi hamda shu tashkilotga ixtiyoriy hissasini qoʻshishi zarur. Boshqacha aytganda, aynan xalqning jonli huquqiy ongi davlat shaklini belgilab beradi, unga hayot, kuch baxshida etadi; binobarin, davlat shakli, eng avvalo, xalqning huquqiy ongi darajasiga, uning toʻplagan tarixiy-siyosiy tajribasiga, iroda kuchi va milliy xususiyatiga bogʻliqdir. [2]

Asosiy qism

Davlat boshqaruvining respublika shaklida davlat hokimiyati va boshqaruvning oliy organlari bevosita xalq tomonidan yoki xalq saylagan organlar tomonidan saylab qoʻyish yoʻli bilan tuziladi va uning vakolati muayyan muddatga belgilanadi. «Respublika» lotincha respublika – «jamoat ishi», «xalq ishi», davlat degan maʼnoni anglatadi. Respublikaning asosiy belgilari – hokimiyat oliy organlarining saylab qoʻyilishi, hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi, qonunlarning bajarilishini nazorat qiluvchi organ – sudlarning mavjudligi, fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishi. Respublika hozirgi dunyoda keng tarqalgan davlat boshqaruv shakli boʻlib, uning ikki koʻrinishi mavjud: 1) prezidentlik respublikasi; 2) parlamentar respublika.

Prezidentlik boshqaruv shaklida «kuchli prezident» qoidasiga asoslaniladi. Prezident hukumat boshligʻi hisoblanib, uni tuzadi va hukumat prezident oldida hisobot beradi. Prezident ham rasman, ham amalda davlat boshligʻi hisoblanib, maxsus tartibda xalq yoki

saylovchilar hay'ati tomonidan saylanadi, shu bois u parlamentdan mustaqil holda faoliyat yuritadi. Prezident mustaqil holda normativ va normativ bo'lmagan hujjatlar qabul qilish hamda parlament qabul qilgan qonunlarga veto qo'yish huquqiga ega. Prezident ijroiya hokimiyat rahbari bo'lsa-da, ayni vaqtning o'zida millatning yaxlitligi ramzi hisoblanadi. Prezident mamlakatda oliy bosh qo'mondon vazifasini ham amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida prezident bevosita xalq tomonidan saylanadi. Saylovlar tegishli qonunlar asosida amalga oshiriladi. Parlamentar respublikaning mohiyati shundan iboratki, parlament oliy davlat hokimiyat organlari orasida muhim mavqega ega bo'lib, hukumatni tuzishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hukumat parlament oldida hisobdordir. Hukumatni parlament saylovlarida eng ko'p o'rin egallagan partiya tuzadi. Davlatning amaldagi rahbari hukumat boshlig'i – bosh vazir bo'lib, u qoidaga ko'ra saylovlarda g'olib chiqqan partiya yo'lboshchisi hisoblanadi. Parlament davlat hokimiyati organlari tizimida eng muhimidir. Hukumat o'z vazifalarini qonun chiqaruvchilarning aksariyati qo'llab-quvvatlasagina bajarishi mumkin, bunday ishonchdan mahrum bo'lgan taqdirda, u iste'foga chiqadi. Germaniya, Avstriya, Italiya, Hindiston, Turkiya kabi davlatlar parlamentar respublika shaklidagi davlatlar qatorida hisoblanadi. Shuningdek, jahon tajribasida respublikaning aralash shakli ham uchray turadi. Aralash (prezidentlik-parlamentar) respublika boshqaruv shakli noan'anaviy monarxiya shakli singari boshqaruv amaliyotida kam uchraydigan turlardan biri bo'lib, yuridik adabiyotlar va huquqshunoslik manbalarida batafsil o'rganilmagan. Aralash respublika shakli mamlakatda bir vaqtning o'zida «kuchli parlament» va «kuchli prezident» mavjudligi bilan boshqaruvning boshqa shakllaridan keskin farq qilib, prezident va parlament vakolatlari o'rtasidagi muvozanatning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Parlament vakolatlarining kengayishi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlari quyidagilardan iborat: 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudini, Oliy sudini, Sudyalari oliy kengashini, respublika korrupsiyaga qarshi kurashish organining rahbarini va respublika monopoliyaga qarshi organining rahbarini saylash; 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisi lavozimlariga nomzodlarni ko'rib chiqish hamda ma'qullash; 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taklif etilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati raisi lavozimiga nomzod yuzasidan maslahatlashuvlar o'tkazish; 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalari rahbarlarini tayinlash va ularni lavozimidan ozod etish; 5) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish; 6) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzish hamda tugatish to'g'risidagi farmonlarini tasdiqlash; 7) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to'g'risidagi hujjatlarni qabul qilish; 8) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish; 9) O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi va xalqaro tashkilotlar huzuridagi diplomatik hamda boshqa vakolatxonalari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari bo'yicha hisobotlarini eshitish; 10) davlat organlarining mansabdor shaxslariga parlament so'rovini yuborish va parlament nazoratining boshqa shakllarini amalga oshirish; 11) mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish; 12) mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qarorlarini, ular qonunchilik normalariga muvofiq bo'lmagan taqdirda, bekor qilish; 13) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisini va uning o'rinbosarlarini, qo'mitalarning raislari va ularning o'rinbosarlarini saylash; 14) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosini daxlsizlik huquqidan mahrum etish to'g'risidagi masalalarni hal etish; 15) o'z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog'liq masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish; 16) siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish; 17) Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan davrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlarni qabul qilishga doir vakolatlarini bajarish, bundan Konstitutsiya va konstitutsiyaviy qonunlar mustasno; 18) ushbu Konstitutsiya va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'zini o'zi tarqatib yuborish to'g'risida senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qaror qabul qilishi mumkin. [1].

O'zbekiston Respublikasining unitar davlat sifatidagi o'ziga xosligi uning davlat tuzilishi shakli, hududiy yaxlitligi va boshqaruv tizimining yagonaligida namoyon bo'ladi. 2025-yilgi huquqiy voqelik va yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida uning asosiy xususiyatlari tavsiflangan. O'zbekiston — yaxlit (unitar) davlat. Bu shuni anglatadiki, mamlakat hududi

=====

tarkibiy qismlarga bo'lingan bo'lsa-da, viloyatlar, tumanlar, shaharlar shaklida, bu qismlar davlat suvereniteti belgilariga ega emas. Konstitutsiyaning 3-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'zining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini mustaqil hal qilishi, davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas ekanligi qat'iy belgilab qo'yilgan. 3-modda. O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir. [1].

Davlat mexanizmining tashkil etilishi va faoliyat yuritishi muayyan rahbariy g'oyalar, qoidalar, ya'ni prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Davlat mexanizmining prinsiplari ularning to'g'ri faoliyat yuritishida yo'llanma beruvchi vazifani o'taydi. Shuningdek, mazkur prinsiplar davlat apparatining harakat doirasi va mezonini belgilab beradi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati – davlat hokimiyatining uch asosiy tarmog'idir. Davlat mexanizmini qurish muayyan ob'ektiv tamoyillar asosida amalga oshadi, bu esa jamiyatni davlat tomonidan idora etishning samaradorligini ta'minlash kafolati hisoblanadi. Qonun chiqarish va ijro etish vakolatlari ayni bir shaxs qo'lida yoki ayni bir idora ixtiyorida jamlangan bo'lsa, erkinlik mavjud bo'lmaydi, zero, monarx yoki senat noto'g'ri qonunlar qabul qilishi va ulardan johillarcha foydalanishi mumkin.

Hokimiyatlar taqsimlanishining yuridik ma'nosi buyuk fransuz ma'rifatparvari Sh.L.Monteskening "Qonunlar ruxi haqida" asarida shunday izohlangan: adolatli qurilgan davlatda hokimiyat yagona emas, balki aksincha bir biriga tobe bo'lmagan uchta hokimiyat: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud bo'lishi shart. Ularning har qanday ko'rinishda biron bir organ yoki shaxs qo'lida mujassamlanishi umumiy manfaatlarga putur yetkazadi, suiiste'molliklarga olib keladi va shaxsning siyosiy erkinligi bilan mutlaqo kelishmaydi. Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning bir qo'lida birlashtirilishi qonunning ustun bo'lishiga zarar yetkazadi, bordi-yu, sudyalalar faqat sudlov bilan mashg'ul bo'lmay, qonun yaratish ishi bilan shug'ullansalar, u holda insonlar hayotida asossiz qonunlar ko'patishi mumkin. [3] Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud funksiyalarini bajarish bir shaxs yoki muassasa qo'lida jamlanmasligi kerak. Qonun chiqaruvchi organlar tarkibiga ijro etuvchi hokimiyat xodimlari va sudyalalar kirmaydi, ya'ni qonun kuchiga ega bo'lgan qarorlarning bo'lg'usi ijrochilari deputat bo'lib saylanishlari mumkin emas. Hokimiyat vakolatlarini konstitutsiyaviy bo'linishining asosiy ma'nosi – ijtimoiy-siyosiy kuchlar orasida hokimiyat vakolatlarining oqilona taqsimlanishidir. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi prinsipidan kelib chiqqan

holda davlat mexanizmi ya'ni apparati o'z faoliyatini amalga oshirishi lozim. Davlat mexanizmi tashkil etilishi demokratik prinsip asosida amalga oshiriladi. Chunki, davlatning qonun chiqaruvchi organlari xalq tomonidan saylash orqali tashkil etiladi. "Ierarxiya" – bir-biriga o'zaro bo'ysunuvda bo'lish degan ma'noni anglatadi. Ierarxiya - pog'onama-pog'ona, piramida, o'zaro bo'ysunuvdagi kabi so'zlar bilan bir ma'noni anglatadi. Pog'onama-pog'ona joylashish prinsipining mazumuni shundaki, u davlat organlari tuzilishining bir shakli bo'lib, yuqori davlat organlarining vakolatlari quyi organlarning vakolatlariga nisbatan ko'proq hamda ular quyi organlarning faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Davlat mexanizmiga kiruvchi organlar o'z faoliyatini oshkoralik tamoyili asosida amalga oshiradilar. Davlat mexanizmining tashkil etilishi qonun yo'li bilan amalga oshiriladi. Davlat apparatining asosiy bo'g'ini bo'lgan qonun chiqaruvchi organ – Oliy Majlis, ijro etuvchi organ – Vazirlar Mahkamasi va sud organlari – Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi va Konstitusiyaviy sud to'g'risida O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari qabul qilingan. Hozirgi O'zbekiston davlati mexanizmining tarkibiy-funksional tahlili unga kiruvchi tarkibiy qismlarning, ya'ni davlat organlarining roli va o'rnini aniq tasavvur etishni anglatadi. Davlat organlarining Konstitusiya va qonunlarda belgilangan maqomi ularning zimmlaridagi davlat funksiyalarini bajarish jarayoni va xususiyatlari bilan uyg'un tarzda tahlil etiladi.

Huquqshunos olimlar V. M. Korelskiy va V. D. Perevalov «davlat funksiyasi – davlatning asosiy harakat yo'nalishi va undan kelib chiqadigan maqsad va vazifalar» dir. [4]. , – deb ta'riflasa, N. I. Matuzov va A. V. Malkolar «davlat funksiyalari – davlatning tashqi va ichki faoliyatiga xos asosiy yo'nalishlar bo'lib, ushbu yo'nalishlar davlatning Ijtimoiy va umuminsoniy mohiyati asosida o'z aksini topadi va muayyanlashadi»[5]. , - deb qayd etadilar. Z. M. Islamov davlat funksiyalari – faoliyat yo'nalishi, biroq hech qachon faoliyatining o'zi emas, deb ta'kidlaydi.[6] . Biroq, oxirgi mulohaza nazariy jihatdan baxslidir. Shunday qilib, yuridik adabiyotlarda "davlat funksiyasi" tushunchasiga oid yagona bir fikr hozirgacha shakllangani yo'q. Ammo tadqiqotchilarning barchasi davlat funksiyasi davlatning mohiyati, ijtimoiy maqsadi, vazifalarini belgilab beradi, degan fikrda yakdildirlar.

So'nggi asrlardagi sinfiy va demokratik jamiyatlarda davlatdan tashqari muayyan ijtimoiy kuchlarning, guruhlar va qatlamlarning manfaatlarini ifodalovchi turli siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, ayollar va yoshlarning jamoat birlashmalari, sanoatchilar va fermerlarning tashkilotlari kabilar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ayni vaqtda ular siyosatga

muayyan ta'sir o'tkazmoqda. Biroq, shunga qaramay davlat jamiyatning siyosiy tizimida markaziy o'rin egallaydi. Buning sababi quyidagi omillar bilan izohlanadi: Birinchi – davlat manfaatlari o'zaro kelisha olmaydigan turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, sinflarning samarasiz ziddiyati va o'zaro qarama-qarshiligining muqobili sifatida yuzaga keladi va faoliyat ko'rsatadi. Ikkinchi – davlat birgalikda hayot kechirish maqsadida uyushgan insonlarning ittifoqi, turmush faoliyatining tashkiliy shakli hisoblanadi. Insonlarning davlat bilan bo'ladigan tarixiy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari “fuqarolik” degan kategoriyada o'zining mujassami, siyosiy-huquqiy ifodasini topadi. “Davlat jamoasi” ning har bir a'zosi davlatning mavjudligidan manfaatdor. Chunki, davlat vositasida shaxsiy daxlsizlik va erkinlik, oila va mulk muhofazasi, shuningdek shaxsiy hayot xavfsizligi kafolatlanadi. Shu tariqa individ shaxs dastlabki barqaror siyosiy sifatlariga ega bo'lib, mamlakat siyosiy hayotining ishtirokchisiga aylanadi. Uchinchi – davlatning vujudga kelishida jamiyatning ijtimoiy – sinfiy tabaqalanishi muhim rol o'ynaydi. Bundan shu ma'no chiqadiki, davlat iqtisodda hukmron sinfning siyosiy tashkiloti sifatida namoyon bo'ladi. To'rtinchi – davlat o'z ijtimoiy manfaatlarini qondirish uchun birlashgan insonlar dastlabki siyosiy faoliyatining mahsulidir. Bu siyosiy voqeliklarning umumuniversalligi bilan bog'liq. Siyosiy hayot ommaviy hokimiyat faoliyati va mamlakatning butun hududi miqyosida kechadi. Shu bois davlat siyosiy hayotni tashkillashtirish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Davlat qonunchilik hujjatlari yordamida “siyosiy o'yin qoidalarini” belgilaydi. Davlat mamlakat miqyosida siyosiy hayotning shakli sifatida jamiyat siyosiy tizimi bilan aynan mos keladi. Davlat o'zining vazifasi va funksional xususiyatlari bilan siyosiy tizimning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Beshinchi – davlat jamiyatning siyosiy tizimi bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi bog'lovchi va muvofiqlashtiruvchi muhim bo'g'indir. U jamiyat manfaati uchun zarur umumijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Masalan, transport, aloqa, uy-joy qurilishi, energetika ta'minoti, ekologiya sofligini ta'minlash, ta'lim tizimini tashkil etish va hokazo sohalarda davlat amalga oshiradigan faoliyat butun jamiyatning umumiy manfaatlarini aks ettiradi.

Xulosa.

Davlat shaklini modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va 2025-yilgi huquqiy islohotlar tahlili asosida quyidagi yakuniy ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin: Hokimiyatlar bo'linishi tizimining funksional takomillashuvi: Zamonaviy davlat boshqaruvida modernizatsiya — bu shunchaki organlar sonini o'zgartirish emas, balki "tiyilish va muvozanat" mexanizmini real ishlashini ta'minlashdir. O'zbekiston tajribasi

shuni ko'rsatadiki, kuchli prezidentlik tizimidan vakolatlari muvozanatlashgan respublika modeliga o'tish davlat apparatining barqarorligini oshiradi va yakka tartibdagi xato qarorlar xavfini kamaytiradi. Unitarizmdan "Demokratik markazsizlashtirish"ga o'tish: Davlat tuzilishi shaklini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishi — markaziy hokimiyat vakolatlarining bir qismini mahalliy darajaga o'tkazishdir. Ilmiy xulosa shundan iboratki, hududiy boshqaruvda mustaqillikning oshishi mahalliy muammolarning tezkor va samarali hal etilishiga, natijada unitar davlatning yaxlitligi yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Siyosiy rejimning raqamli transformatsiyasi: 2025-yilgi huquqiy voqelikda siyosiy rejimni demokratlashtirish bevosita "Elektron hukumat" tizimi bilan bog'liq. Raqamli texnologiyalar davlat va fuqaro o'rtasidagi masofani yo'qotib, jamoatchilik nazoratini davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylantirdi. Bu esa avtoritarizm elementlarini bartaraf etuvchi eng samarali texnologik vositadir. "Inson qadri" — legitimlikning bosh mezon: Davlat shaklining har qanday modifikatsiyasi inson huquqlari va uning qadr-qimmatini himoya qilishga xizmat qilmasa, u o'zining ijtimoiy ahamiyatini yo'qotadi. Modernizatsiyaning bosh ilmiy xulosasi shuki, davlat shakli maqsad emas, balki inson baxtli yashashi uchun xizmat qiluvchi huquqiy vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yilgi tahrir. 95-modd.
2. Ilyin, I. *Kelayotgan Rossiya haqida*. Tanlangan maqolalar. – Moskva, 1993. – 27-bet.
3. Monteskye, Sh.L. *Tanlangan asarlar*. – Moskva, 1955. – 290-bet.
4. Davlat va huquq nazariyasi. V.M. Korelskiy va V.D. Perevalov tahriri ostida. – Moskva, 2001. – 146-bet.
5. Matuzov, N.I., Malko, A.V. *Davlat va huquq nazariyasi*. Darslik. – Moskva: Yurist, 2004. – 48–66-betlar.
6. Islomov, Z.M. *Jamiyat. Davlat. Qonun (nazariy masalalar)*. – Toshkent, 2001. – 223-bet.
7. Odilqoriyev, H.T. *Davlat va huquq nazariyasi*. – Toshkent: "Adolat", 2018. – 160–165-betlar.